

QUTB XORAZMIYNING “XUSRAV VA SHIRIN” DOSTONIDA TASHXIS SAN’ATINING QO‘LLANILISHI

Markabayeva Dilara Anvarbek qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti magistri,
Xalqaro qishloq xo‘jaligi universiteti assistent o‘qituvchisi.

markabayevadi@gmail.com

+99890 985 26 12

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17054865>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Qutbning “Xusrav va Shirin” dostonida obrazlar tasviri tahlil qilinadi. Asarda muallifning badiiy mahorati, personajlarning ruhiy olami, ularning o‘zaro munosabatlari hamda voqealar rivojidadagi estetik ifodasi yoritilgan. Doston qahramonlari orqali muallif insoniy tuyg‘ular, muhabbat, sadoqat va sabr kabi yuksak fazilatlarini san’atkorona ifodalaydi. Shuningdek, Qutb ijodida xalqona obraz yaratish usullari, badiiy vositalardan foydalanish mahorati va o‘zbek mumtoz adabiyotidagi o‘rni ko‘rsatib beriladi.

Kalit so‘zlar. Ilmi aruz, ilmi qofiya, ilmi bade‘, “Mezon ul-avzon”, “Majolis un-nafois”, “Muhokamat ul-lug‘atayn”, majoz, istiora, kinoya, husni ta‘lil, tarse‘, tardi aks, tazod, muammo, ta‘rix, jam, tafriq, raddul matla‘, tajnisi qofiya.

Sharq mumtoz adabiyoti badiiy san’atlar asosiga qurilgan. Hatto, Qur’oni karimning tili ham fasohatning, balog‘atning yetuk namunasi hisoblanadi. Badiiy san’at turlarini o‘rganish islom ma’rifatchiligi davridan boshlangan bo‘lsa, san’atlarning rivojlanish ibtidosi insoniyat tarixining eng qadimgi zamonlariga borib taqaladi. Arab va fors badiiy asarlaridagi san’at turlarining o‘rganilishi ilk bor arab olimlari tomonidan yaratilgan ilmiy asrlarda boshlangan. Sharqda poetika ilmi “ilmi balog‘a” (balog‘at ilmi) deb yuritiladi. U “ilmi maoniy”, “ilmi bayon” va “ilmi bade’”larni o‘z ichiga oladi. Balog‘at ilmining ko‘proq badiiyat bilan bog‘liq qismi “ilmi bade’” bo‘lib, u tuyg‘u va fikrni go‘zal, maqbul shaklda ifodalash usullari, ifodani bezovchi san’atlarni o‘rganadi. Keyinroq u bilan bog‘liq holda ko‘proq she’riyatni o‘rganuvchi ilmlar uchligi (ilmhoyi segona) vujudga keldi. Bular: Ilmi aruz. Ilmi qofiya. Ilmi bade’.

Ilmi bade’ fikrni ravon, nafis ifodalash vositalari, badiiy san’atlarning turlari va xususiyatlarini o‘z ichiga oluvchi ilmdir.

Ilmi bade’ga doir ilk asarlar arab olimlari tomonidan yaratilgan. Nasr binni Hasanning “Mahosin ul-kalom”, Ibn al-Mo‘tazning “Kitob ul-bade’”, Quddama ibn Ja‘farning “Naqd ush-she’r” kabi asrlari shular jumlasidandir. Fors adabiyoti va ilmi yuqori darajaga yetgach, ilmi bade’ga oid forsiy manbalar ham yuzaga kela boshladi. XI asrda Muhammad binni Umar Roduyoniyning “Tarjimon ul-balog‘a” nomli ilmi bade’ga bag‘ishlangan forsiy risolasi yaratiladi. O’sha asrda ilmi bade’ga doir ko‘plab risolalar yaratilgan bo‘lsa-da, ularning eng mashhuri Rashiddidin Vatvotning “Xadoyiq us-sehr fi daqoyiq ush-she’r” nomli risolasi bo‘lgan.

Turkiy tilda bu kabi risolalar Alisher Navoiy zamonida jadal ravishda yaratila boshlangan. Navoiyning “Mezon ul-avzon”, “Majolis un-nafois”, “Muhokamat ul-lug‘atayn” asrlarida bir qadar badiiy san’atlarga doir ma’lumotlar berilgan. Turkiy tilda yaratilgan adabiyot nazariyasiga oid ilk mukammal asar Shayx Ahmad Taroziyning “Funun ul-balog‘a” asari hisoblanadi. Ushbu asar taxminan 1436-1437-yillarda yaratilgan. Asar turkiy tilda yaratilgan birinchi mukammal adabiyot nazariyasiga oid kitob hisoblanib, unda ham aruz ilmiga, ham qofiya ilmiga, ham badiiy san’atlarga doir ma’lumotlar uchraydi. Asar uch qismdan iborat bo‘lib,

birinchi qism, Sharq she'riyatida XV asrda turkiy she'riyatda foydalanilayotgan she'r janrlariga bag'ishlanadi. Ikkinchi qism qofiya va radif ilmiga bag'ishlanib, uchinchi qismda ilmi bade'dan to'qson yettita san'at turlari izohlangan.

Sharq mumtoz poetikasida nasr va nazmda qo'llaniladigan 120dan ortiq san'at turi mavjud bo'lib, ular mohiyati jihatidan quyidagi uch turga bo'linadi:

- Lafziy san'atlar;
- Ma'naviy san'atlar;
- Mushtarak san'atlar.

Adabiyotshunos Yoqubjon Is'hoqov esa ushbu bo'linishdan tashqari badiiy san'atlarni matn kontekstida qo'llanilishga ko'ra turlarga bo'lish ma'qulroq ekanini ta'kidlab, badiiy san'atlarni quyidagi guruhlariga ajratib chiqadi: Istioraviy-ramziy tasvir usullari (majoz, istiora, kinoya kabilarni kiritadi). Qiyosiy-assotsiativ usullar (majoz, istiora, kinoya kabi san'at turlari) Fikrni dallillash yo'llari (husni ta'lil kabi). Emotsional-mubolag'ali tasvir usullari. Sintaktik-stilistik usullar (tarse', tardi aks kabi). Kontrast (tazod). Murakkab san'atlar (muammo, ta'rix). Stilistik mutanosiblik (jam, tafriq kabi). Qofiya bilan aloqador san'atlar (raddul matla', tajnisli qofiya kabi).

Lafziy san'atlar nutqning ifoda usuli, xususan so'z shakli bilan aloqador san'atlar bo'lib, Atoulloh Husayniy ular sirasiga tarsi', tajnisli tarsi', tajnis, radd (qaytarish) san'ati va uning turlari, qalb va uning turlari, saj', tashtir, tajziya, tasri', tasmit, aks, tardid, zulqofiyatayn, tavshih, talavvun, mulamma', muqatta', muvassal, jam' ul-huruf, murabba' yoki musoviyat tarafayn, mudavvar, mushokala va boshqa san'atlarni kiritadi. Olimning fikricha, lafziy san'atlar ijodkor yetkazmoqchi bo'lgan fikrni yuksak badiiy shaklda ifodalashga xizmat qilishi kerak.

Badiiy san'atlarning ikkinchi katta guruhi ma'noning birlamchiligiga asoslanib, badi' ilmida ma'naviy san'atlar deb yuritiladi. Z.Mamajonov ularni o'xshatish asosidagi san'atlar (tashbih, tamsil, talmih, irsol ul-masal, laff va nashr), majoz asosidagi san'atlar (istiora, kinoya, tashxis, intoq), belgini kuchaytirish asosidagi san'atlar (mubolag'a, tafrit, iyg'ol), ifoda usullari asosidagi san'atlar (mulamma', tajohuli orif, mazhabi kalomiy, husni ta'lil, ruju', savolu javob, nido) degan guruhlariga bo'ladi.

Shuningdek, yana bir guruh san'atlar borki, ular ham lafzga, ham ma'noga aloqador. Atoulloh Xusayniy bunday she'riy san'atlarni mushtarak san'atlar deb ataydi. Bular quyidagilardan iborat: mutobaka, hakikiy takobul, tadbij, muqobala, murot un-nazir, tafvif, talil, tansik us-sifot, irsod, muzovaja, ittirod, iqtibos, aqd, hall, tazmin, husni ibtido, baroati istihdol, husni taxallus, husni matla', husni makta' shular jumlasidan sanaladi.

Qutb dostonida barcha badiiy san'at turlaridan foydalangan holda turkiy tarjimaning go'zal namunasini yaratgan. Bu bilan Qutb nafaqat mohir tarjimonligini, shuningdek, yaxshigina so'z san'atkori ekanligini ham namoyon qiladi. Masalan, Qutb Xusravga berilgan ta'rif orqali talmeh san'atining g'ozal namunasini yaratadi.

Aningdek ko'rki bo'ldi elda mashhur

Yuzin ko'rgan Yusuf bu teyu saqnur.

Sharq mumtoz adabiyotida Yusuf qissasi juda mashhur. Qur'oni karimning ham eng go'zal makkiy suralaridan biri "Yusuf" surasidir. Yusuf qissasi aynan mana shu "Yusuf" surasida bayon etilgan. Yusuf alayhissalom go'zallikda tengi yo'q inson edi. U Ibrohim (a.s), Is'hoq (a.s)larning avlodidan bo'lib, bolalik vaqtidayoq payg'ambarlik maqomiga munosib ko'rilishi tushida nozil bo'ladi. Otasi Ya'qub alayhissalom Yusuf alayhissalomni boshqa o'g'illaridan ziyodroq

sevguvchi edi. Shu sababdan Yusufning o'n ikki akasi otasini Yusufdan qizg'onib, Yusufni yo'q qilmoqchi bo'lishadi. Otasini aldab Yusufni o'zlari bilan birga olib ketib, quduqqa uloqtirib, ko'ylagiga hayvon qonidan surtib, Yusufni bo'ri yeb qo'ydi deb otasiga yolg'on gapirishadi. Otasi Ya'qub alayhissalom Yusufning firoqida ado bo'lib, yig'layverganidan ko'zlari ko'rmas bo'ladi. Yusuf alayhissalom esa quduqdan savdogarlarning qo'liga tushib qul qilib sotiladi, tuxmatga uchrab zindonga tushadi va Alloh bergan aql-u zakosi orqali zindondan ozod bo'lib, Misr eliga vazir bo'ladi. Aynan shu vazirlik chog'larida yurtida ocharchilik hukm surar, o'gay akalarining qavmi ham ochlikdan sillasi qurir edi. ular Yusuf alayhissalomdan yordam so'rab kelganlarida, Yusuf (a.s) akalarini taniydi, lekin ular Yusufni tanimaydi. Yusuf ularga yordam berib, ukasini ham olib keltiradi. Ukasini o'zi bilan olib qolgach, ota-onasini ham olib keltiradi. Yusufning firoqida ko'zlari ko'r bo'lgan Ya'qub (a.s) Yusuf (a.s) akalari orqali berib yuborgan ko'ylakni yuzlariga yopib, Yusufning hidini tuygach, ko'zlari yana ko'ra boshlaydi. Otasi hamda onasi Misrga keladi. Yusuf ularni taxtga chiqaradi. Ular taxtdan turib Yusuf alayhissalomga sajda qiladilar. Yusuf alayhissalom bolaligida ko'rgan tushining tab'iri shu ekanligini aytadi. Shuningdek, mumtoz adabiyotda Yusuf alayhissalom go'zallik timsoli sanaladi. Yorning jamolini ifodalashda Yusuf obrazi ishlatiladi. Qutb ham talmeh san'ati orqali Xusravning tashqi ko'rinishini Yusuf siymosiga mengzaydi.

Tinibek madhiga bag'ishlangan bobdan berilgan quyidagi parchada ham talmeh san'atidan mahorat bilan foydalanilgan.

Bu haqning chin Sulaymonisan, e shox,
Kim, ush Bilqistek yoningda bor moh.

Mumtoz adabiyotimizda Sulaymon obrazi Sulaymon (a.s) nomi bilan bog'liq. Sulaymon (a.s) – Dovud (a.s)ning o'g'li otasining oldiga o'z xalqiga payg'ambar bo'lib keldi. U butun yer yuzini boshqargan 4 ta shohdan biri sanaladi. U barcha tirik mavjudotlar (qushlar, hayvonlar va hayvonlar) tilini biladi. Uning mulki va saltanati buyuk edi. Muqaddas Qur'oni Karimda Bilqis podshohi va Sulaymon (a.s) haqida hikoya qilinadi. Bilqis – Sabo mamlakatining malikasi bo'ladi. Qur'ondagi Sulaymonning ulug'vorligi haqidagi rivoyatga ko'ra, Hudhud qushi Podshohiga Sabo yurtiga borib, "hamma narsa ato etilgan" bir ayol hukmronlik qilayotgan mamlakat borligini aytadi. Ular shaytonga aldanib Allohni o'rniga quyoshga sig'indilar. Sulaymon qush orqali malikaga maktub yuborib, unga itoat qilishni so'raydi. Bilqis qarindoshlari bilan maslahatlashib, Sulaymonga katta sovg'alar yuboradi. Ammo Sulaymon malika elchilari oldida sovg'alarni yomon ko'rishini va Sabo hududiga bostirib kirganini e'lon qildi. Keyin malika o'zi Sulaymonning oldiga keladi. Ko'z ochib yumguncha Sulaymonga xizmat qilgan sehrgarlar va jinlar unga malikaga taxt olib kelishadi. Malikani saroyga kiritishganida, saroyning qadam bosiladigan qismi shaffof billurlardan iboratligini ko'radi. Alloh hamma narsada yorlaqagan Sulaymonning buyukligiga guvoh bo'lgach, malika o'z ahmoqligini tushunadi va Allohga imon keltiradi. Qutb ham Tinibekni Sulaymonga , malikani esa Bilqisga tenglashtirgan holda , Tinibek hukmronlik yillarini maqtaydi.

Dostonda Farhodning Shirin ishqida o'rtanib, devonasifat bo'lganligini Qutb Majnun va Layli sayyor syujeti bilan ifoda etadi va talmeh san'atining go'zal namunasini yaratadi.

Xayolini kurib Majnun tonglar,
Jamoli birla Layli ko'yin o'ylar.

Baytda mashhur Majnun qissasiga ishorat qilinadi. Majnun "Ming bir kecha" hikoyalaridan mashhur bo'lib kelayotgan Sharq adabiyotining an'anaviy obrazi. Aslida, arab

xalq og'zaki ijodida mashhur bo'lgan obraz, badiiy adabiyotda ham mashhurlikka erishgan. Bunda xamsachilik an'anasining ham o'rni katta. Sababi xamsachilikning muhim shartlaridan biri aynan Majnun va Layli munosabatlariga bag'ishlangan dostonning mavjud bo'lishi edi. Ushbu baytda Majnun obrazi kiritilib, uning taqdiriga ishora qilish orqali she'rdagi lirik ta'sirchanlik orttirilgan. Majnun Qaysning laqabi, ya'ni bu so'z arabcha "junun" o'zagidan olingan bo'lib, aqlini yo'qotgan degan ma'noni anglatadi. Qays Laylining ishqida, Laylining ruxsorida Yaratganning jilosini ko'rib, aqlidan ayriladi. Tun-u kunduzning farqiga bormaydigan kimsaga aylanib, ko'chalarda sarson-sargardon kezuguvchi bo'lgach, odamlar unga Majnun deb laqab qo'yishadi. Asl ismi unutilib, hamma Majnun sifatida taniydi. Majnun obrazi va qissasiga ishora qilish ayni shu maqsadga xizmat qilgan va juda o'rinli chiqqan. Lirik qahramonning cheksiz azoblarini ifodalash imkonini bergan. Ya'ni Shirinning xayolini ko'rib tonglar Majnunga aylanishdi, jamoli (yuzini) ko'rib esa Laylimi ekan deya o'ylashadi, deya badiiy tasvirning noyob namunasini kashf etilgan.

"Shovurning Xusrav bayonini Shiring'a aytgani" bobida berilgan quyidagi baytda ham talmeh san'atidan mahorat bilan qo'llanilgan. Bu yerda Qutb Xusravning aslzodalar nasabiga tegishli ekanligini Jamshid obrazi orqali ifoda etadi.

Nasab so'rsang erur Jamshid urug'i,
Tugal bor xonlik asosi, qurug'i

Jamshid ham mashhur Eron shohlaridan biri. Alisher Navoiy o'zining "Tarixi muluki Ajam" asarida Peshdodiyar sulolasining uchinchi podshohi sifatida alohida to'xtalib o'tadi¹. Unga ko'ra, Jamshid adolatli va qattiqqo'l shoh bo'lgan. Jang aslahalarini ixtiro qilgani, Jamshidgacha jangda tosh va yog'ochlardan foydalanilgani, hammomlar qurgani, odamlarni ipak hamda boshqa mayin matolardan kiyim kiyishga o'rgatgani, Istaxr shahri bunyodkori, Navro'z bayramini nishonlagani, yetti yuz yil taxtda o'tirib, oxir-oqibat kibrga berilib, odamlarni o'ziga ibodat qilishini istashi hamda o'z suratida butlar yasatgani haqidagi so'zlar yuritiladi². Ammo uning jom hamda sharobni ixtiro qilganligi haqida hech qanaqa ma'lumot bermaydi. Turkiy adabiyotdagi Jamshid obrazi Firdavsiyning "Shohnoma"sidagi Jamshid obrazi asosiga qurilgan. Aslida Jamshid haqidagi ilk ma'lumotlar "Avesto"da keltirilgan. Firdavsiy talqinida badiiy obraz darajasiga ko'tarilgan Jamshid "Avesto"dagi Jamshid qissasi asosiga qurilgan. Navoiyning "Tarixi muluki Ajam"da keltirgan ma'lumotlari ham "Shohnoma"ga monan. Firdavsiy ham Jamshid 700 yil hukmronlik qilgani, taxtga o'tirgan kunini Navro'z bayrami sifatida nishonlashni joriy etgani, g'ishtli uylar qurdirgani, matodan kiyim tiktirgani haqidagi gaplarni aytib o'tadi. Xusrav ham ayni paytda Eron podshohlaridan edi, Shu sababi ham Qutb Xusravning oliy nasab ekanligiga ishora qilish uchun ham Jamshid obrazidan foydalanadi.

Quyidagi baytalari orqali tanosub san'atining go'zal namunalarini yaratadi. Tanosib (arabcha "mos", "mutanosib") – baytda ma'no jihatidan bir-biriga yaqin tushunchalarni anglatuvchi so'zlarni (uyadosh so'zlarni) qo'llash san'ati sanaladi.

Uturttilar og'irlab ani beklar,
Nisor qildilar oltun, yinju, gavhar.
Ne ul yinju, kumush, oltunga boqti,
Ne ichku, yegu, xil'at — to'nga bokti.

Yuqoridagi “Xusrav Farhodning Shiring’a oshiqlik’in eshitkani” bobidan olingan parchada Qutb oltun, yinju, gavhar soʻzlari, undan keyingi baytdagi ichku, yegu, xil’at, to’n soʻzlari orqali tanosib san’atining go’zal namunasini yarata olgan.

Qutb ijodida yana lafziy san’at turlariga kiruvchi ta’did san’atining go’zal namunalari ham mavjuddir.

Ta’did – arabcha soʻz boʻlib, u “hisob”, “sanoq”, “miqdor” degan ma’nolarni anglatadi. Bu san’atning xususiyati shuki, matndan ega, kesim, aniqllovchi, to’ldiruvchi va hollarning zanjirli birin-ketin bir necha bor kelishini belgilashdir. Uyushgan soʻzlar, birikmalar va gaplar ham intonatsiya jihatidan alohida ohang kasb etadi. Uch, to’rt yoki undan ortiq soʻz, birikma yoki gaplar uyushuvi badiiylikni oshiradi, kitobxonni lazzatlantiradi va ta’kid tufayli qiyosiy ta’kid yuzaga kelishini quyidagi misollardan kuzata olamiz:

Qutb Shovurning Xusravga Shirin ta’rifi keltirgan baytda ta’did san’ati qo’llanilgan.

Yuzi kundek, sochi tun, olin oy ul,

Ko’zi nazgis, egni gul, ko’rkka boy ul.

Quyidagi Tinibek madhi keltirilgan baytda ham ta’did san’ati mavjud. Qutb Tinibek sultonni xulq-atvorli, fahm-farosatli, ilm va aql-idrokli, nozik didli, shuningdek, muloyim tabiatli ekanligini sanash ohangiga mos holda ta’riflagan.

Zihi xulqu, zihi fahmu ,zihi ilm,

Zihi aqlu, zihi tab’u, zihi hilm.

References:

1. Yusupova D. Aruz vazni qoidolari va mumtoz poetika asoslari: – Toshkent: Ta’lim-media, 2019. -
2. Ishoqov Y. Soʻz san’ati soʻzligi. – Toshkent: Oʻzbekiston, 2014. – B. 320.
3. Zohidov V. Oʻzbek adabiyoti antologiyasi. I jild. -Toshkent: OʻzSSR adabiyoti, 1959. - B. 125.
4. Muhammad Yusuf Muhammad Sodiq. Tafsiri hilol. 6 tomlik. 3-tom – Toshkent: Sharq, 2008. – B.
5. Navoiy Alisher. Mukammal asarlar to’plami. 6-jild. – Toshkent: Fan, 2000. – B. 195
6. Zohidov V. Oʻzbek adabiyoti antologiyasi. I jild. -Toshkent: OʻzSSR adabiyoti, 1959. - B. 133.
7. Yusupova D. Universal qo’llanma. Toshkent:Oʻz MU. 2013. – B.6.